

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“MILLIY IQTISODIYOTIMIZDA INVESTITSIYALAR VA MOLIYAVIY  
RIVOJLANISHNI OLIY MUHANDISLIK MAKTABLARI BILAN  
INTEGRATSIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI”

## TEZISLAR TO‘PLAMI

2024-yil 1-avgust–27-sentabr



MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 300 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 30-iyulda ruxsat etildi.*

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori  
Nosir Mahmudov, i.f.n. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Nasir Mahmudov**, I.f.n. Professor of Tashkent State University of Economics

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Zamonaviy agrotexnologiyalar hosildorlik garovi .....	15
<b>K.A.Sharipov, V.A.Karimov</b>	
Oliy ta'lim tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlashni tashkil etish. toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va xorijiy davlatlar tajribasi.....	19
<b>S. M. Mirzaliyev</b>	
Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadlilikini oshirish masalalari.....	24
<b>Adilov Mirkomil Miralimovich</b>	
Yoshlar turizmi bilan bog'liq tushunchalarni o'rganishning nazariy jihatlarini.....	27
<b>Allayor Norboev Ismoilovich</b>	
The importance of risk management to ensuring the stability of commercial banks .....	30
<b>Abdusalomov Jahangir Oktam ugli</b>	
Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobining asoslari .....	33
<b>Abduraxmanov Otabek Patidinovich</b>	
Inson kapitalini boshqarishda inteluktual salohiyatni iqtisodiy bilimlar bilan mustahkamlash dolzarbligi .....	36
<b>Kurbanbayeva Sevara Marat qizi</b>	
Reducing corruption through tax mechanisms .....	39
<b>Musayeva K.Y</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida o'zbekistonda kichik biznesning rivojlanish jarayonlari tahlili .....	42
<b>Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li</b>	
Davlat budjeti xarajatlarining samaradorlik indikatorlaridan samarali foydalanish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari .....	45
<b>S.M.Xolxo'jayev</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyati tahlili .....	47
<b>Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi</b>	
Issues of greening the economy in ensuring sustainable economic growth.....	51
<b>Nurmetova Muyassar Jumanazarovna</b>	
Reducing corruption through tax mechanisms .....	54
<b>Musayeva K.Y</b>	
Пути повышения конкурентоспособности предприятия .....	56
<b>Азларова Муштарийбегим Аббор кизи</b>	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ko'rsatkichlarning ijtimoiy omillari va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish yo'nalishlari .....	59
<b>S.M. Xolxo'jayev</b>	
Ways to effective management of the public debt.....	62
<b>Olimjon Fattoev</b>	
Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va stavkalari.....	66
<b>Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna</b>	
Передовые методы сбора данных для точных маркетинговых исследований .....	70
<b>Бекназова Комилахон Миркамол кизи</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklar faoliyatida raqamlashtirish loyihalarini qo'llab-quvvatlash .....	73
<b>Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi</b>	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning nazariy asoslari .....	76
<b>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</b>	

Qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan doimiy va mavsumiy ishchilar soni orasidagi bog'liqlikni statistik tahlil qilish .....	78
<b>Rustamova Mexrigiyo Muxtor qizi</b>	
O'zbekiston oziq-ovqat bozorining rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy prognozlash samaradorligini oshirish yo'llari .....	83
<b>Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi</b>	
Zamonaviy iqtisodiy davrda "yashil" moliya va uning xalqaro moliya tizimidagi o'rni .....	86
<b>Shodmonkulova Shahlo Olimjon qizi</b>	
The Impact of Financial Technologies (FinTech) on Economic Growth.....	89
<b>Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli</b>	
Post pandemiya davrida jahon turizm bozorida o'zgarishlarning tahlili.....	92
<b>Raxmonov Shuxrat Shavkatovich</b>	
Integration of activities with higher engineering schools to provide employment.....	96
<b>Batirov Farkhad Bakitovich</b>	
Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasini tashkillashtirish mexanizmlari.....	99
<b>Adizov S.</b>	
Organik mahsulotlar savdosini oshirishda organik mahsulotlar tarqatish kanallarining ahamiyati .....	102
<b>Xidirov Shohrux Bobur o'g'li</b>	
Понятие макроэкономической стабильности и её элементы.....	105
<b>Салахиддинова Муштарий Абдумуминовна</b>	
Sportchilarning sog'ligi .....	108
<b>Mirzalieva Surmaniso Alisher qizi</b>	
Mamlakatimiz iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarining o'rni va uning kelgusi istiqbollari .....	111
<b>Samariddin Jumaev</b>	
Kichik korxonalarini rivojlantirishdagi muammolari va ularning yechimlari.....	112
<b>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li, Ergasheva Nigora Abdigapparovna</b>	
Значимость внедрения стандартов для улучшения качества обслуживания в туристической индустрии.....	115
<b>Адылова Диёра Улугбековна</b>	
Kimyo sanoati korxonalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirish.....	118
<b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>	
Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari.....	122
<b>Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li</b>	
Iqtisodiyot va ekologiya muvozanati: barqaror taraqqiyotga yondashuv.....	128
<b>Turdiyeva Iroda Ismoil qizi</b>	
Biznesni moliyalashtirishni manbalarini ko'paytirishni imkoniyatlari.....	131
<b>Adilov Sherzot Shamilevich</b>	
Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishni rivojlantirish.....	134
<b>Qo'chqorov Tohir Safarovich, To'ychiyev Akmaljon Abdulatif o'g'li</b>	
Ta'minot zanjirini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni afzalliklari.....	137
<b>Yuldashev Abdusakim Abdukarimovich</b>	
Environmental protection concept: a link between economic well-being and Environmental Degradation.....	141
<b>Egamberdiev Komron</b>	
O'zbekistonda makroiqtisodiy uyg'unlikka erishishning asoslari.....	144
<b>Abdulla Abduqodirov</b>	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlarining ta'sirchanligini oshirish yo'llari (O'zbekiston misolida) .....	147
<b>Rahmatullayeva Ahdiya Ja'farovna, Ollokulova Feruza Nansurovna</b>	

Hududga xorijiy investorlarni jalb etish maqsadida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish yo'llari .....	150
<b>Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi, Olloqulova Feruza Nansurovna</b>	
Xalqaro banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda kredit samaradorligini oshirish yo'llari .....	153
<b>Abdivaliyev Daler Yusupovich, Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
Mintaqalarda sanoat aglomeratsiyalarni shakllanishi bosqichlari nazariyasi .....	156
<b>Malikov Zuhriddin Vohidovich</b>	
Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	159
<b>Abdukayumov Xumoyunmirzo Giyosbek o'g'li</b>	
Aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish muammolari va istiqbollari .....	162
<b>Xasanov Jamshid Abdullayevich</b>	
Strategic pricing on the example of the Marriot hotel .....	165
<b>Botirova Zumrad Ilhom qizi</b>	
O'zbekiston davlat korxonalarini (DK)da moliyaviy samaradorlikni baholash usulini takomillashtirish .....	168
<b>Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li</b>	
Digital transformation and its effect on inclusive economic growth in Uzbekistan .....	170
<b>Jazira Buranova</b>	
Сколько стоит «Озеленение» производства для компаний текстильной отрасли? .....	173
<b>Носирова Чарос</b>	
Investment challenges and solutions for Uzbekistan's metallurgical enterprises .....	177
<b>Tatiana Budey</b>	
Mulkiy soliqlar ma'muriyatchiligining xalqaro tajribasi .....	180
<b>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</b>	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning xalqaro tajribasi.....	184
<b>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</b>	
Tredingda texnik tahlil va savdo jarayonlarini boshqarish .....	188
<b>To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularning samaradorligi .....	190
<b>Shamshetova Gulraushan</b>	
Korxonalar moliyaviy resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari .....	193
<b>Jiyanova Nargiza Esanboyevna</b>	
Insofli soliq to'lovchilarni ko'paytirish-soliq ko'rsatkichlarining muhim omili sifatida .....	196
<b>Abdurasulov Alisher Abdurasulovich</b>	
Анализ инвестиционной привлекательности акционерных обществ на фондовом рынке .....	200
<b>Юлдуз Усманова</b>	
Analysis of international experiences in the development of small business and private entrepreneurship.....	204
<b>Abdovohidov Behzod XXX</b>	
Tijorat banklarida raqamli strategiyalarni shakllantirish va ularni amalga oshirishning xalqaro tajribalari .....	207
<b>Erdonayev Aliqul Xalimovich</b>	
Intellektual mulk huquqlari va ularning global savdoga ta'siri .....	210
<b>Raxmonova Dildora Ergash qizi</b>	

Mehmonxona ovqatlantirish xizmatlarida innovatsion menyu siyosatini shakllantirish: sog'lom ovqatlanish va mijoz ehtiyojlari integratsiyasi.....	213
<b>Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich</b>	
Raqamli xizmatlarda ishonch va xavfsizlik: foydalanuvchi xulqi va huquqiy innovatsiyalar ta'siri.....	217
<b>Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali Qizi</b>	
Sug'urtada bozori infratuzilmasi tashkiliy asoslari .....	219
<b>Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich</b>	
Budjet mablag'lari ustidan moliyaviy nazoratning tuzilishi hamda tarkibi .....	222
<b>Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich</b>	
Sayyohlar uchun qulay transport tizimi – hududiy raqobatbardoshlik omili sifatida .....	226
<b>Vakilov Ruslan Tillabayevich</b>	
Raqamli turizm xizmatlari va ularni huquqiy tartibga solish mexanizmlari .....	228
<b>Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li</b>	
Buxoro viloyatida eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va agroeksport salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlari.....	231
<b>Ro'ziyev Sobirjon Samatovich</b>	
Improving the insurance market of Uzbekistan based on foreign experience.....	235
<b>Jumaboyev Akmal Sheraliyevich</b>	
Turizm xizmatlari bozorining rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari .....	238
<b>Xoshimov Baxrom Baxadirovich</b>	
Проблемные кредиты коммерческих банков: причины и современные методы решения.....	245
<b>Улмасой Хусан кизи Ахмедова</b>	
Eksimbank tashkil etish orqali eksportni yanada faollashtirishning zarurati va istiqbollari.....	248
<b>D.E.Qarshiev</b>	
Tadbirkorlik samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar va infratuzilmaning o'rni .....	251
<b>Sattarov Xayrulla Fayzullayevich</b>	
Sug'urtada andarrayting xizmatini tashkil etish .....	255
<b>D.E.Qarshiev</b>	
Investitsion jozibadorlik orqali agrar rivojlanishni ta'minlash: o'zbekiston tajribasi .....	258
<b>S.J. Yangiboev</b>	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari davlat xaridlari: aqsh, buyuk britaniya va yaponiya tajribasi .....	261
<b>Majidov Nizom Baxramovich</b>	
Qishloq xo'jaligi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari resurslari hisobiga moliyalashtirish istiqbollari .....	264
<b>Tolibov Shoxrux Muminovich</b>	
Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim muassasalariga investitsiyalar jalb etish tajribasi .....	268
<b>Otaxanov Rasulbek Marks o'g'li</b>	
Деятельность международных финансово-кредитных организаций и перспективы развития сотрудничества с Республикой Узбекистан .....	272
<b>Холикова Зарнигор Камолиддин кизи</b>	
Budjet tashkilotlarning xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini tuzish hamda tasdiqlash .....	275
<b>Abdurasulov Sardor To'liqin o'g'li</b>	
Bank boshqaruvi va innovatsion iqtisodiyot: transformatsiya jarayonlari va rivojlanish istiqbollari.....	281
<b>Hamroyev Xurshid Jalilovich</b>	
Цифровая экономика и международная цифровая интеграция.....	284
<b>Турапов Бахромжон Алишеревич</b>	

Международно-правовые гарантии иностранных инвесторов в транспортной инфраструктуре: проблемы и перспективы .....	287
<b>АлишEROVA ЭЗОЗА</b>	
Jon Meynard Keynsning ilmiy qarashlarida aholi bandligini ta'minlash istiqbollari .....	291
<b>M.E.RAJABBOYEV</b>	
Xalqaro tajribada logistika zanjiri uzluksizligini ta'minlash strategiyalari va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi.....	294
<b>KURBONOVA MA'MURA ABDUKARIM QIZI</b>	
Iqtisodiyotni fond bozori vositasida moliyalashtirish bo'yicha nazariy qarashlar .....	297
<b>G'ANIYEV AXRORJON NORBOY O'G'LI</b>	

## IQTISODIYOTNI FOND BOZORI VOSITASIDA MOLIYALASHTIRISH BO‘YICHA NAZARIY QARASHLAR



G'aniyev Axrorjon Norboy o'g'li  
Bank-moliya akademiyasi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiyotni fond bozori vositasida moliyalashtirishga oid nazariy qarashlar chuqur tahlil qilingan. Klassik, neoklassik va institutsional maktablar doirasidagi yondashuvlar hamda zamonaviy iqtisodiy nazariyalardagi qarashlar o'rganilgan. Fond bozorining iqtisodiy o'sishga, investitsiya jarayonlarini jadallashtirishga, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qo'shadigan hissasi ochib berilgan. Maqolada fond bozorini rivojlantirish va uni milliy iqtisodiyotni moliyalashtirishning samarali mexanizmi sifatida shakllantirishga oid ilmiy xulosalar hamda takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** fond bozori, moliyalashtirish, iqtisodiy o'sish, investitsiya, kapital bozor, institutsional yondashuv, innovatsiya, moliyaviy barqarorlik.

**Abstract:** This article provides an in-depth analysis of theoretical perspectives on financing the economy through the stock market. It examines the approaches of classical, neoclassical, and institutional schools, as well as modern economic theories. The study highlights the role of the stock market in promoting economic growth, stimulating investment processes, supporting innovation, and ensuring financial stability. The article presents scientific conclusions and policy recommendations aimed at developing the stock market and strengthening its role as an effective mechanism for financing the national economy.

**Key words:** stock market, financing, economic growth, investment, capital market, institutional approach, innovation, financial stability.

**Аннотация:** В данной статье проведён углублённый анализ теоретических взглядов на финансирование экономики через фондовый рынок. Рассмотрены подходы классической, неоклассической и институциональной школ, а также современные концепции экономической науки. Раскрыто влияние фондового рынка на экономический рост, активизацию инвестиционных процессов, поддержку инноваций и обеспечение финансовой стабильности. В статье сформулированы научные выводы и предложения по развитию фондового рынка и его превращению в эффективный механизм финансирования национальной экономики.

**Ключевые слова:** фондовый рынок, финансирование, экономический рост, инвестиции, рынок капитала, институциональный подход, инновации, финансовая стабильность.

Bozor iqtisodiyotida moliyaviy resurslarni samarali safarbar qilish va ularni real sektor ehtiyojlariga yo'naltirish masalasi har doim dolzarb bo'lib kelgan. Ushbu jarayonda fond bozori milliy iqtisodiyotni moliyalashtirishning muhim vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Fond bozori rivojlangan mamlakatlar tajribasida kapitalni jamlash, uni samarali taqsimlash va iqtisodiy o'sish jarayonlarini jadallashtirishda asosiy manba sifatida shakllangan. Shu boisdan, iqtisodiyotni fond bozori vositasida moliyalashtirish masalasi nazariy jihatdan ham, amaliy nuqtayi nazardan ham chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

Fond bozori nazariyasi dastlab klassik iqtisodiy maktab vakillari qarashlarida shakllanib, ular kapital harakati, investitsiya va daromad olish jarayonlarini umumiy iqtisodiy muvozanat bilan bog'lab izohlagan.

Keyinchalik neoklassik yondashuv doirasida fond bozori iqtisodiyotning barqarorligi, samarali resurs taqsimoti va moliyaviy oqimlarning nazariy asoslari sifatida o'rganildi. XX asrda institutsional maktab vakillari fond bozorini nafaqat moliyaviy vosita, balki iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlaydigan muhim institut sifatida talqin qilishdi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda esa fond bozorining iqtisodiy o'sishga ta'siri, kapital bozorida xavf va rentabellik nisbatlari, korporativ boshqaruvdagi o'ri hamda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati alohida tahlil qilinmoqda.

Bugungi kunda fond bozori orqali moliyalashtirish masalasi iqtisodiyotning investitsiya salohiyatini kengaytirish, kichik va o'rta biznes subyektlarini kapital bilan ta'minlash hamda korporatsiyalarni uzoq muddatli resurslar bilan qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun fond bozori faoliyatining institutsional jihatlari, huquqiy asoslari, investorlarni himoya qilish mexanizmlari va axborot shaffofligini ta'minlash masalalari nazariy va amaliy tahlilni talab qiladi.

Fond bozori milliy iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmlaridan biri sifatida iqtisodiyot nazariyasida uzoq tarixiy rivojlanish bosqichidan o'tgan. Uning shakllanishi dastlab kapital bozorining umumiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, keyinchalik alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Fond bozori orqali moliyalashtirish jarayonida mablag'lar ortiqcha moliyaviy resurslarga ega bo'lgan subyektlardan kapitalga ehtiyoji yuqori bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga yo'naltiriladi. Bu jarayon moliyaviy vositachilikning samarali shakli bo'lib, u iqtisodiyotning real sektori uchun zarur bo'lgan investitsiya oqimlarini ta'minlash imkonini beradi.

Klassik iqtisodiy maktab vakillari fond bozorini kapitalning tabiiy harakati bilan bog'lab izohlaganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, bozor sharoitida mablag'lar tabiiy ravishda eng samarali yo'nalishlarga oqib boradi va bunda fond bozori muvozanatni ta'minlovchi mexanizm vazifasini bajaradi. Adam Smitning "ko'rinmas qo'l" nazariyasi doirasida ham investitsiya resurslari erkin raqobat sharoitida eng samarali tarmoqlarga yo'naltirilishi ta'kidlangan. Biroq bu yondashuv ko'proq nazariy farazlarga tayanib, real iqtisodiy sharoitlarda fond bozorining institutsional va tashkiliy cheklovlarini hisobga olmagan.

Neoklassik iqtisodiy nazariya fond bozorining samaradorligini bozor muvozanati, taklif va talab nisbatlari, investitsiya qarorlarining optimal shakllanishi orqali izohlaydi. Ushbu yondashuvda investorlar ratsional qaror qabul qiluvchi subyektlar sifatida qaralib, ular mavjud axborotga asoslangan holda risk va rentabellik nisbatini baholash orqali investitsiya qiladi, korporatsiyalar esa resurslarni jalb etish orqali ishlab chiqarishni kengaytiradi. Bu qarashlar Markowitzning portfel nazariyasi va Sharpe tomonidan ishlab chiqilgan kapital aktivlarini baholash modeli (CAPM) orqali yanada rivojlantirildi. Mazkur nazariyalar fond bozorida moliyalashtirish jarayonida riskni diversifikatsiya qilish, optimal portfel tuzish va kapital qiymatini aniqlash mexanizmlarini ochib berdi.

Institutsional iqtisodiy nazariya fond bozorining faoliyatini faqat iqtisodiy model sifatida emas, balki jamiyatdagi muhim institutlar tizimi doirasida talqin qiladi. Bu yondashuv vakillariga ko'ra, fond bozori samaradorligi faqat bozor kuchlari bilan emas, balki huquqiy baza, institutsional tuzilmalar, davlatning tartibga solish siyosati va axborot tizimining shaffofligi bilan ham belgilanadi. Masalan, Duglas Nort kabi olimlar iqtisodiy rivojlanishda institutlarning o'ri haqida ta'kidlar ekan, fond bozori kabi institutlarning rivojlanishi investitsiya muhitini yaxshilashda muhim o'rin tutishini qayd etgan.

Zamonaviy yondashuvlarda fond bozori nafaqat kapitalni jalb etish vositasi, balki iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi tizim sifatida o'rganilmoqda. Xususan, endogen o'sish nazariyasi doirasida fond bozorining iqtisodiy o'sishga ta'siri alohida tahlil qilingan bo'lib, unda moliyaviy resurslarning tadqiqot va ishlanmalar (R&D), innovatsion loyihalar va yangi texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilishi iqtisodiy o'sishni uzoq muddatli barqarorlik bilan ta'minlash omili sifatida ko'rsatilgan. Bu borada Jozef Shumpeterning innovatsiyalar haqidagi qarashlari ham muhim bo'lib, fond bozori tadbirkorlar uchun yangi moliyaviy imkoniyatlarni yaratish orqali iqtisodiy tizimni dinamik rivojlanishga undaydi.

Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda fond bozorining moliyaviy chuqurlashuv darajasi ham muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Moliyaviy chuqurlashuv mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy vositalar, xizmatlar va institutlar tizimining qamrovi kengayishi, ularning samarali ishlashi bilan belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fond bozori rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalarning YalMdagi ulushi yuqori bo'lib, iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror saqlanadi. Aksincha, fond bozori zaif rivojlangan mamlakatlarda moliyalashtirish asosan bank kreditlari orqali amalga oshiriladi va bu iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini cheklaydi.

Moliyalashtirishning fond bozori orqali amalga oshirilishi bank krediti bilan solishtirilganda bir qator ustunliklarga ega. Birinchidan, korporatsiyalar fond bozori orqali uzoq muddatli kapitalni jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning strategik rivojlanish rejaları uchun qulaylik yaratadi. Ikkinchidan, investorlar fond bozorida turli xil moliyaviy instrumentlar orqali o'z mablag'larini diversifikatsiya qilish, risklarni kamaytirish imkoniga ega bo'ladi. Uchinchidan, fond bozori iqtisodiyotdagi moliyaviy resurslar oqimini shaffoflashtiradi va korporativ boshqaruvning ochiqligini ta'minlaydi. Biroq bu jarayonning muvaffaqiyati mamlakatdagi huquqiy, institutsional va iqtisodiy muhit bilan bevosita bog'liq.

Fond bozorining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishda turli nazariy qarashlar mavjud. Bir guruh olimlar fond bozori iqtisodiy o'sishga kuchli turtki beradi, deb hisoblaydi. Chunki u jamg'armalarni safarbar qiladi, investitsiya samaradorligini oshiradi va yangi texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa bir yondashuvda esa fond bozorining iqtisodiy o'sishga ta'siri ortiqcha baholangan, deb ta'kidlanadi. Ularning fikricha, fond bozorining haddan tashqari rivojlanishi spekulativ operatsiyalarning ko'payishiga olib kelib, moliyaviy inqirozlar xavfini kuchaytiradi. Shu boisdan, fond bozorini iqtisodiyotni moliyalashtirishning samarali mexanizmi sifatida rivojlantirishda muvozanatli yondashuv talab qilinadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston sharoitida ham fond bozorining iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi roli tobora ortib bormoqda. Oxirgi yillarda mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish, korporativ qimmatli qog'ozlar emissiyasini kengaytirish, investorlarni jalb etish va axborot shaffofligini ta'minlash bo'yicha qator institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash va investitsiya oqimlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ammo fond bozorini iqtisodiyotni moliyalashtirishning to'laqonli mexanizmi sifatida shakllantirish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash, investorlar huquqlarini himoya qilish, kapital bozorida ishtirokchilarning faolligini oshirish kabi vazifalar hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shunday qilib, iqtisodiyotni fond bozori vositasida moliyalashtirish nazariy qarashlari turli iqtisodiy maktablar va zamonaviy yondashuvlar orqali rivojlanib kelmoqda. Klassik va neoklassik nazariyalar fond bozorining samaradorligini bozor mexanizmlari orqali izohlagan bo'lsa, institutsional yondashuvda uning huquqiy va tashkiliy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy qarashlarda esa fond bozori iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi tizim sifatida talqin qilinmoqda. Bu nazariy asoslar O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda fond bozorini iqtisodiyotni moliyalashtirishning samarali vositasi sifatida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni fond bozori vositasida moliyalashtirish nazariyasi turli yondashuvlar orqali rivojlanib, ularning barchasi kapitalning samarali taqsimlanishi va iqtisodiy o'sish jarayonlariga xizmat qiladigan asosiy mexanizmlarni yoritadi. Klassik qarashlarda fond bozori bozor muvozanatini ta'minlovchi vosita sifatida ko'rilgan bo'lsa, neoklassik yondashuvda uning samaradorligi ratsional qarorlar va riskni boshqarish mexanizmlari orqali izohlangan. Institutsional va zamonaviy qarashlarda esa fond bozori iqtisodiy o'sish, innovatsiyalarni moliyalashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi institut sifatida talqin qilinadi. Ushbu nazariy asoslar milliy iqtisodiy tizimlarda fond bozorining rolini yanada kuchaytirish, uni moliyaviy resurslarni safarbar etishning muhim manbai sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kelajakda sohani rivojlantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish, investorlar huquqlarini ishonchli himoya qilish, korporativ boshqaruvda ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va xalqaro tajribalarni qo'llash orqali fond bozorining investitsion jozibadorligini yuksaltirish mumkin. Bu jarayon milliy iqtisodiyotni barqaror moliyalashtirish, xususiyl sektor faoliyatini kengaytirish hamda iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli sur'atlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Damodaran. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. – New York: Wiley, 2012. – 992 p.
2. F. Mishkin, S. Eakins. Financial Markets and Institutions. – Boston: Pearson, 2018. – 720 p.
3. R. C. Merton, Z. Bodie. The Design of Financial Systems: Towards a Synthesis of Function and Structure. – Cambridge: Harvard Business School Press, 2004. – 45 p.
4. J. Tobin. A General Equilibrium Approach to Monetary Theory. – Journal of Money, Credit and Banking, 1969. – Vol. 1(1). – P. 15–29.
5. R. Levine. Stock Markets, Growth, and Tax Policy. – Journal of Finance, 1991. – Vol. 46(4). – P. 1445–1465.
6. J. Schumpeter. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
7. D. North. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
8. A. Gerschenkron. Economic Backwardness in Historical Perspective. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1962. – 456 p.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

### 2024-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

